

ALPOMISH – MANAS, MANAS – ALPOMISH BO‘LA OLADIMI?**Ergasheva Nilufar Akramjon qizi***O‘zbekiston Milliy universiteti**o‘zbek filologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Bir-biridan biri-birini baland qo‘yib bo‘lmaydigan dostonlar, xalqning tarixiy tirik obidalari haqida ma‘lumot beriladi. “Alpomish” va “Manas” epolari o‘xshashlik tomonlari qiyoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *Alpomish, Manas, qahramonlik, tush motivi, xoslik, tarixiylik va o‘lmaslik.*

Asrlar, davrlar yangilanadi. Zamonlar o‘zgaradi. Lekin xalqning kuchi, uning bir tan-u bir jon qilib turadigan xalq epolari yo‘qolmaydi. Agar bir xalq milliy eposidan ayrilsa, bilingki u xalq jar yoqasida. Chunki xalq dostonlari ma‘naviy yuksaklikni ham ifodalaydi. O‘zbekning “Alpomish”i, “Go‘ro‘g‘li”si kabi dostonlari, yuzlab maqollar, matallar, ertaklari bor. Bularning bittasi yo‘qolsa ham o‘rnini to‘ldirib bo‘lmaydi. Yoki aksincha, xalq og‘zidagi biron asar topilib qolsa, naqd xazinaga duch kelgan bo‘lamiz.

Qirg‘izlarning “Alpomish”i ham, “Go‘ro‘g‘li”si ham, boshqasi ham, avvalo, “Manas” dostonidir. U ham tipologik jihatdan “Alpomish” bilan bir xil, ya‘ni qahramonlik dostoni. Va ularning aksari deyarli bir vaqtda – o‘tgan asrning yigirmanchi-elliginchi yillarida yozib olingan. Biroq qirg‘iz dostonlari yozib olingan chog‘da o‘zbeklarda epik muhit barham topib, bu asarlar badiiy obidaga aylangan bo‘lsa, xuddi o‘sha XX asr boshida qirg‘iz folklorida epik muhit hali barqaror edi. Bu holat to elliginchi yillarga qadar davom etdi. Uning voqeasi hatto hozir ham seziladi, har besh-o‘n yilda yangi-yangi “Manas”chi oqinlar yetishib chiqyapti.

Ammo bugungi shiddatli davr epik muhitning yana davom etishiga imkon qoldirmadi. Shuning uchun, “Manas” eposi ham, qachon yozib olinganidan qat’i nazar, o‘tmish merosi. Bugungi qirg‘iz auditoriyasi ham uni so‘z san‘ati namunasi, badiiy asar deb emas, o‘tmish obidasi deb biladi.

Qirg‘iz “Manas” eposining tarjimasi ham bizga suv va havodek kerak. Chingiz Aytmatov bekorga uni “qadimgi qirg‘iz ruhining sarbaland cho‘qqisi” demagan. Bu asar bilan tanishib, biz qardosh va qo‘shni el – qirg‘izlarning milliy ruhini, o‘ziga xosliklarini ko‘proq anglaymiz.

“Manas” – hajman dunyoda eng yirik doston. Sog‘imboy O‘rozbekov aytgan birgina varianti 450 ming misra keladi. Yana bir mashhur “Manas”chi Sayoqboy Qoralaev esa bu eposdan qariyb 1 million misrani yod bilganini naql etadilar. Ayonki, buncha ko‘lamli narsani yuzlab kitob qilib nashr etish amrimahol. Shuning uchun ham Qirg‘izistonning o‘zida ham “Manas” hozirga qadar faqat qisqartirilgan holda nashrga tayyorlab kelingan.

Bu asarning I bo‘lim birinchi qismi yanada katta qisqartirishlar bilan 1964 yilda ustod Mirtemir tomonidan o‘zbek tiliga o‘girilgan. Oradan o‘ttiz yil o‘tib, 1995 yilda – ming yilligi nishonlanayotgan kunlari uning ikkinchi qismini Sulton Akbariy tarjima qildi, bolalar uchun tayyorlangan variantini esa Tursunboy Adashboev o‘zbekchalashtirdi. Shu o‘rinda o‘tgan asr elliginchi yillari oxirida Frunze shahrida chiqqan “Qirg‘iziston haqiqati” gazetasi xodimlari uning ba’zi qismlarini o‘girib, ushbu ro‘znoma sahifalarida chop ettirishganini, XXI asr boshlarida esa o‘shlik ayrim qalamkashlar ham eposning u yoki bu variantini o‘zbek tiliga ag‘darishganini qayd qilib o‘tishimiz lozim. Endi dostonga to‘xtalsak, menga eng ta’sir qilgan misralaridan sizga ham ilingim keldi:

Ulamodan uqqan so‘z,
Olimlardan yuqqan so‘z...
...Orsizlardan og‘rinib
Azamat erga qo‘ng‘an so‘z.
...Naq yurakka botg‘an so‘z,
Dilda qaynab, qotg‘an so‘z.
Yovga otlangan botirning
Yon yarog‘i bo‘lg‘an so‘z.

Chindan ham “Manas”ni xalq yozganmi deb o‘ylab qoladi kishi. Xuddi bizning “Alpomish” dagi kabi professional vazn, qofiya va ohang uyg‘unligi mavjud. Tush motivi ham ikki dostonida deyarli o‘xshash. “Manas” da Jaqip, Chiyirdi va Baxtdavlarlar tush ko‘radi. Ya’ni uch kishi. “Alpomish” da ham Alpomish, Barchinoy va Qorajonning tush ko‘rishi qandaydir ikki xalqning bitta urug‘ga mansub ekanining bir belgisidir.

“Manas” dostoni dunyodagi eng katta epos sifatida tanilgan. Ushbu buyuk doston uchta katta qismdan iborat. Birinchi qism Manas deb nomlangan. Ushbu bo‘limda Manasning tashqi dushmanlar bilan urushi va qirg‘izlarning ozodlik kurashi haqida hikoya qilinadi. Ikkinchi qism Manasning o‘g‘li Semeteyning qahramonligi haqida bo‘lsa, uchinchi qism Manasning nabirasi Seytekning hayoti haqida. Qirg‘izlar o‘rtasidagi aka-uka raqobatining chuqur izlarini Semetey va Seytek misolida ko‘rish mumkin. Turk qabilalari o‘rtasida birdamlikning ahamiyati “Manas” dostonida alohida ta’kidlangan. Ikkala dostonida ham o‘z xalqining urf-odatlarini, e’tiqodlari, turmush tarzi, geografiyasi, davlat barpo etish an’analarini, ularning moddiy va ma’naviy qadriyatlarini aks etadi. Mardlik masalasi ikkala dostonida ham muhim darajada. Masalan, “Manas”da:

Qilich bilan chopishib,
Uning epin qilolmay,
Cho‘qmor bilan solishib,
Arslon kabi olishib,
Jon ayamay urushdi.

Qiron Manas botiring
Enkayib qo‘l soldi-ku.

Alpomish – buzilgan yurtning tuzuvchi shaxs timsoli. Bu xil tuzuvchi-bunyodkor shaxslarda butun xalq quvvati jamlanadi. Xalqning a‘moli yurtning tuzilishiga asos bo‘lsa, Alpomish kabi, Manas kabi shaxslar tug‘iladi. Manasni ko‘p va xo‘p maqtadim. Endi Alpomishim haqida ikki og‘iz so‘z aytsam. “Alpomish” chiroyli mubolag‘alar, tashbexlar, aforizmlar xazinasini ham. Men bejiz yuqorida “Manas” eposidan misollar keltirmadim, bu ikki doston ana shunday badiiy san’atlarga to‘la. Alpomishning :

Tikilsam quriydi daryoning gumi,
Na’ra tortsam qular qo‘rg‘onning timi, -
degani juda go‘zal mubolag‘a edi.

Hech qachon bir xalqning o‘rnini boshqa xalq bosa olmaydi. Manas alohida olam, Alpomish alohida olam aslida. Men ularning shunchaki qiyosiy jihatdan ayrim o‘xshash tomonlarinigina aytib o‘tdim. Eng muhimi “Manas” bu “Manas”, “Alpomish” bu “Alpomish”! Ikkisi ham xalqning shoh asari. Xalqning baland obidalari. Iloho, Obidalarimizning umri uzoq bo‘lg‘ay!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Manas. (Qirg‘iz xalq eposi. 2-kitob. Sog‘imbek O‘rozbek o‘g‘li varianti. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1987-yil.)
2. Alpomish. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti.
3. “Etnos va Epos” Sh.Turdimov